

GASTRONOMIK TURIZM TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY ASOSLARI (BUXORO VOHASI MISOLIDA)

Alimova Difuza Obidovna
Osiyo Xalqaro Universiteti Magistranti

Kalit so'zlar: *gastronomik turizm , Buxoro gastronomiyasi, kulinar meros, madaniy turizm, hududiy rivojlanish*

KIRISH

Barchamiz bilamizgi, so'ngi yollarda turizm sohasida madaniy va tajribaviy yo'nalishda bo'lgan talabning ortishi gastronomik turizmning ahamiyatini kuchaytirmoqda. O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Buxoro o'zining boy tarixiy – madaniy merosi bilan bir qatorda , noyob milliy taomlari, oshpazlik ananalari orqali gastronomik turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Gastronomik turizm tushunchasi

Gastronomik turizm-sayyohlarning muayyan hududda milliy va hududiy taomlar , oshpazlik ananalari, oziq –ovqat mahsulotlari hamda ovqatlanish madaniyati bilan tanishish maqsadida amalga oshiradigan sayohatidir.Buxoro misolida gastronomik turizm shahar tarixiy muhiti, savdo yo'llari va ko'p asrlik oshpazlik tajribasi bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan.

Buxoro gastronomiyasining shakllanishi

Buxoro Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgani sababli uning oshxonasida turli madaniyatlar mujassamdir.Buxoro palovi, sho'rbosi, tandir nonlari, somsa, va shirinliklari hududning tarixiy rivoji aholining turmush tarzi bilan uzviy bo'g'liqdir. Ushbu taomlar bugungi kunda gastronomik turizmning asosiy resurslari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Buxoro milliy taomlari o'zida shahar tarixiy taraqqiyoti, diniy va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiradi.Gastronomik turizm orqali bu ananalar , avloddan avlodga yetkaziladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan , Buxoroda gastronomik turizmi restoranlar ,oilaviy oshxonalar, milliy mahsulotlar ishlab chiqarish va gastronomik festivallar orqali mahalliy iqtisodiyot ribojiga xizmat qilmoqda.Bu jarayon bandlikni ta'minlanishini oshirish va hudud daromadlarini ko'paytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy jihatdan yondashilsa gastronomik turizmni Buxoroda madaniyatlararo muloqot, milliy o'zlikni anglash va rivojlanish vositasi sifatida izohlaydi.Sayyohlar bilan mahalliy aholi o'rtasidagi muloqot hududning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Tajribada iqtisodiyot nazariyasi ko'ra , Buxoroda gastronomik turizm faqat taom iste'moli bilan emas, taom tayyorlash jarayonida bevosita ishtirok etish, milliy oshxonalar bilan tanishish va degustatsiyalar orqali noyob sayyohlik tajribasini yaratadi.

Xulosa

Buxoro vohasi misolida gastronomik turizm asrlar davomida tarixan shakllanib kelganligiga guvoh bo'lamiz,Uning ilmiy asoslanayotgan rivoji esa shahar turistik

jozibadorligini oshirish milliy merosni asrash va hududiy barqarorlikni rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.Jumayev The Gastronomic Turizm in Uzbekistan; Past and Present Historu. Central Asian Jurnal of Innovations on TurizmManagement and Finance 2022.
2. M.Ro'ziyeva Buxoro viloyatida gastronomic va agroturizm imkoniyatlari tahlili.Inter Jurnal,2020
3. A.Yo'ldoshev ,M.Yo'lchiyeva O'zbekiston gastronomik turizmi : taomlar ortidagi tarix.Zenodo,2021
4. S.Fayziyeva, S.Ro'ziyev Opportunities to Develop Gastronomic Turizm in Uzbekistan. Central Asian Jurnal of Innovations on Turizm Management and Finance.2021
5. Z.Rakhimov, M.Doniyorova M.Umarova Gastronomic Turizm as a Factor of Attractiveness of the Tourist Destination of Uzbekistan.OAJournals, 2022
6. Tulkinovna M. R., Ugli Z. S. T. Innovative and Traditional Ways of Developing Gastronomic Tourism in Uzbekistan //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – T. 4. – №. 2. – С. 116-120.
7. Рузиева М. Т., Таджиева С. У. Роль гастрономических сувениров в туризме //Редакционная коллегия. – С. 207.
8. Ханников Н. Описание Бухарского ханства. -СПб, 1843. – С.121-124, 129,134,137.